

VII TRANSPORT VA ALOQA

Yuk tashish. Avtomobil transportida 18,2 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,7 mln. tonnaga ko'pdir. Yuk aylanmasi 603,4 mln. tn-km ga yetdi va bu o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 51,5 mln. tn-kmga ko'p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,4 % bo'lib, 89,1 mln. tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo'yicha ulushi 92,4 % ni tashkil etgan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln. tn.	18,2	117,5
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	18,2	117,5
Yuk aylanmasi, mln. tn-km.	603,4	109,3
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	603,4	109,3

Yo'lovchi tashish. 2024- yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 221,5 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ga ko'paygan.


Yo'lovchi aylanmasi hajmi 4 774,5 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 48 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 1,2 mln. tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 161,0 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 6,5 %);

Yuk aylanmasi hajmi 38,1 mln. tn-km, o'sish sur'ati o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 125,8 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 6,3 %);



Tashilgan yo'lovchilar hajmi 3,9 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,3 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,8%);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 197,1 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,6 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 4,1 %).



Namangan viloyatining 2024- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati



Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 106,6 % ga ko'payib, 4 774,5 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi.



4 774,5 mln yo'lovchi-km



106,6 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 96,0 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo'lovchi tashishda ulushi

• 95,3 %

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,7 % bo'lib, 3 856,6 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 80,8 % ni tashkil etdi